

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



2025-yil "12"

YASHIL IQTISODIYOT
FANINING O‘QUV DASTURI


Bilim sohasi:	400000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60411100	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
	60410100	Iqtisodiyot

Toshkent-2025


Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti direktori:


G. Arifjonov

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrası mudiri:


M. Voxidova

ARM boshlig'i:


M. Yuldasheva

Fan/modul kodi GE1505	O'quv yili 2027-2028	Semestr 5	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Yashil iqtisodiyot	48	102	150
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning asosiy maqsadi – talabalarni yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, tamoyillari, indikatorlari va amaliy mexanizmlari bilan tanishtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy yondashuvlarning ahamiyatini ochib berishdir. Fan orqali talabalarda barqaror rivojlanish strategiyalari, ekologik siyosat va moliyaviy mexanizmlar bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.</p> <p>“Yashil iqtisodiyot” fanining asosiy vazifasi talabalarda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Fan, eng avvalo, yashil iqtisodiyot tushunchasini, uning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlarini o'rgatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotni baholash indikatorlari, ularning xalqaro tajribadagi qo'llanilishi hamda milliy amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish ham fanning muhim vazifalaridan biridir.</p> <p style="text-align: center;">Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Waseda University (201 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p style="text-align: center;">(https://www.waseda.jp/fcom/wbs/en/applicants/why/imba)</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">I-mavzu. “Yashil iqtisodiyot” kursining predmeti va metodi</p> <p>Kurs predmeti – iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik asosida tashkil etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish masalalaridir. Metodlari esa iqtisodiy tahlil, ekologik baholash, indikatorlar tizimi, komparativ tahlil va statistik kuzatuvlarga tayangan holda ishlab chiqiladi. Ushbu kurs talabalarga ekologiya va iqtisodiyot</p>			

integratsiyasini ilmiy asosda tushunishga yordam beradi.

2-mavzu. Yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati, tamoyillari va dastaklari

Yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik inqiroz va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish ehtiyojidan kelib chiqadi. Tamoyillari – resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitga minimal zarar yetkazish. Dastaklari esa – soliq imtiyozlari, subsidiyalar, “yashil” investitsiyalar, davlat strategiyalari va xalqaro hamkorlik mexanizmlari hisoblanadi.

3-mavzu. Yashil iqtisodiyotni baholash amaliyoti va indikatorlari

Ushbu mavzu yashil iqtisodiyot rivojlanishini o'lchash va baholash metodologiyalariga bag'ishlanadi. Annotatsiya doirasida xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan indikatorlar tizimi – energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish ulushi, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatkichlari – tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot indikatorlari iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni birlashtirib baholashda muhim vosita hisoblanadi.

4-mavzu. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirish

Mazkur mavzu yashil iqtisodiyotga o'tishning moliyaviy mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Annotatsiyada davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari, grantlar, yashil obligatsiyalar va xususiy investitsiyalarning o'mi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, moliyalashtirish vositalari barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan holda iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir etishi tahlil qilinadi.

5-mavzu. “Yashil obligatsiyalar” va “Yashil loyihalalar”

Ushbu mavzuda yashil obligatsiyalar tushunchasi, ularning xalqaro moliya bozorlarida qo'llanishi va yashil loyihalarning moliyaviy barqarorligi o'rganiladi. Annotatsiyada energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalar va ekologik infratuzilmani rivojlantirish uchun moliyalashtirilgan loyihalalar misolida yashil obligatsiyalarning afzalliklari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi.

6-mavzu. “Yashil energetika” – barqaror rivojlanish omili sifatida

Mazkur mavzu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning iqtisodiy va ekologik jihatlariga bag'ishlangan. Annotatsiyada quyosh, shamol, bioenergiya va gidroenergiya kabi manbalar asosida yashil energetika tarmoqlarini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

7-mavzu. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlantirish

Bu mavzuda qishloq xo'jaligida ekologik toza texnologiyalar, resurslarni tejash va organik dehqonchilikning afzalliklari yoritiladi. Annotatsiya doirasida agroekotizimlarning samaradorligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida chiqindilarni kamaytirish va ekologik mahsulotlar eksport salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilinadi.

8-mavzu. Ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi

Mavzuda davlat ekologik siyosatining nazariy asoslari, ularni amalga oshirish mexanizmlari va iqtisodiy vositalar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, ekologik to'lovlar) ko'rib chiqiladi. Annotatsiyada ekologik siyosatning iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganiladi.

9-mavzu. IHTT mamlakatlarida "yashil o'sishni" ta'minlash modellari

Bu mavzuda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) mamlakatlari tajribasi asosida yashil o'sishni ta'minlash modellari o'rganiladi. Annotatsiyada rivojlangan davlatlarning iqtisodiy siyosatidagi ekologik tamoyillar, yashil texnologiyalarni rag'batlantirish vositalari va xalqaro standartlar yoritiladi.

10-mavzu. Koreya Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish omillari va rivojlanish istiqbollari

Ushbu mavzu Janubiy Koreya tajribasini yoritadi. Annotatsiyada "Green Growth" strategiyasi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va yashil energetika bo'yicha erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi.

11-mavzu. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish tajribasi

Mavzu rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Annotatsiyada iqtisodiy resurslarning yetishmasligi, xalqaro moliyaviy yordamning ahamiyati va mahalliy sharoitga mos ekologik texnologiyalarni qo'llash tajribasi yoritiladi.

12-mavzu. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari

Mazkur mavzu O'zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasidagi milliy strategiyasi va dasturlariga bag'ishlangan. Annotatsiyada "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030" hujjati, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, ekologik transport tizimlari va qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanish choralari yoritiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Yashil iqtisodiyot" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni
2. Yashil iqtisodiyot uchun inson kapitalini rivojlantirish
3. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini baholashning xalqaro tashkilotlar yondashuvi
4. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishni investitsiyalash
5. Yashil obligatsiyalarning jahon moliya bozoridagi o'rni
6. "Yashil energetika"ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi
7. Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlari
8. O'zbekistondagi ekologik vaziyat va ekologik siyosat
9. Yashil iqtisodiyotga o'tishning AQSh tajribasi
10. Yashil iqtisodiyotga o'tishning Shvetsiya, Finlandiya tajribasi
11. Yashil iqtisodiyotga o'tishning Xitoy tajribasi
12. Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada

bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

"Yashil iqtisodiyot" fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yashil iqtisodiyot tushunchasi va rivojlanish bosqichlari
2. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va maqsadlari
3. Yashil iqtisodiyot indikatorlari va ularning xalqaro tajribadagi qo'llanilishi
4. Yashil iqtisodiyotda davlat siyosati va boshqaruv mexanizmlari
5. Yashil obligatsiyalar va ularning moliya bozoridagi o'rni
6. Xalqaro moliya institutlarining yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash tajribasi
7. Yashil investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi
8. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari
9. Yashil energetika: qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivoji
10. Qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi
11. Transport tizimida yashil infratuzilma va ekologik transport vositalari
12. Sanoat korxonalarida yashil texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samarasi
13. Koreya Respublikasida yashil iqtisodiyot siyosati va natijalari
14. Germaniya tajribasi: "Energiewende" siyosati va uning saboqlari
15. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishdagi muammolar
16. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi – 2030
17. Yashil iqtisodiyotga o'tishda institutsional to'siqlar
18. Ekologik soliq va to'lovlarning iqtisodiy samaradorligi
19. Yashil innovatsiyalar va ularning barqaror rivojlanishdagi o'rni
20. Yashil iqtisodiyotning O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;
- tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;
- maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;

	<ul style="list-style-type: none"> • o'quv-ilmij-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish; • turli mavzularga doir adabiyotni o'qish (uy o'qishi /domashneye chteniye); • ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish; • taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash; • mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash; • ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish.
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) <i>"Yashil iqtisodiyot" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>Bilimlar jihatidan:</i> • Yashil iqtisodiyot tushunchalari va nazariy asoslarini biladi. • Yashil iqtisodiyotga o'tishning zamonaviy tendensiyalari va zaruriyatini tushunadi. • Yashil iqtisodiyotni baholash amaliyoti va indikatorlarini biladi. • <i>Ko'nikmalar jihatidan:</i> • Barqaror rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyotning o'rnini tahlil qila oladi. • Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish usullari va manbalarini tahlil qila oladi; • O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini anglay oladi
4.	<p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik.-T .:"Ma'rifat", 2024. 224 bet. 2. Green Technology Book 2022. Solutions for climate change

	<p>adaptation. WIPO, 2022.-192 P.</p> <p>Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tandiqliy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023 3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023. 4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. 5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. 6. J.Kontolla,T.Barath. Advances in human factors, business management, training and education. Swirtsland.2017.-115p. <p>Scopusdan maqolalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Braga, H. (2024). The green hydrogen economy and the global net zero agenda: a green powershoring & green watershoring perspective. Modern economy, 15(01), 23-48. https://doi.org/10.4236/me.2024.151002 2. Heshmati, A. (2018). An empirical survey of the ramifications of a green economy. International Journal of green Economics, 12(1), 53. https://doi.org/10.1504/ijge.2018.092359 <p>3. Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.zivonet.uz 2. www.edu.uz 3. www.economicus.ru 4. www.canvanazer.com
7.	<p>O'quv dasturi "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 - yil "12" "06" dagi "20" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025- yil "28" "06" dagi "11" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sul: M.X.Voxidova -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasi mudiri, PhD</p>
9.	<p>Taqrizchilar: N.T.Azizova – "Turizm" kafedrasi dotsenti, i.f.n. S.E.Mamurov -Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.</p>

18